

"QUTADG'U BILIG" ASARIDA BURJ NOMLARINING IFODALANISHI

Mardanova Dilshoda Sadriddin qizi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti doktoranti
dilshodamardanova1996@gmail.com

Annotatsiya. Tilshunoslik ilmining har bir tushunchani ko'p hollarda diaxron va sinxron aspektda o'rganishni taqazo etishi oddiy hol. Fanning mohiyatini tushunishimizda uning tarixan tarkib topishini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Shunga asosan ushbu tadqiqotimizda yil hisobiga oid bugungi kunda tilimizda faol qo'llaniladigan burj nomlarining qadimgi turkiy tildagi ko'rinishlari "Qutadg'u bilig" asari misolida ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. "Qutadg'u bilig", "Devoni lug'otit turk", burj, Hut, Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jady, Dalv.

"KUTADGU BILIG" ESERINDE TAKIM YILDIZLARININ ISIMLERININ IFADESİ

Mardanova Dilshoda Sadriddin kızı,
Özbek-Finlandiya pedagoji enstitüsü doktora öğrencisi

Özet. Dilbilim biliminin, çoğu zaman her kavramın hem diyakronik hem de senkronik açıdan incelenmesini gerektirdiği bilinen bir gerçektir. Bilimin özünü anlamak için onun tarihsel bağlamını incelemek önemlidir. Bu çalışmada, günümüzde takvim açısından dilimizde aktif olarak kullanılan burç adlarının Eski Türk dillerindeki biçimleri, "Kutadgu Bilig" adlı eser örneğinden hareketle bilimsel olarak incelenmiştir.

Anahtar kelimeler. "Kutadgu bilig", "Divoni lug'otit turk", burç, Hut, Hamal, Saur, Jawza, Yengeç, Esad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jady, Dalv.

ВЫРАЖЕНИЕ НАЗВАНИЙ СОЗВЕЗДИЙ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «КУТАДГУ БИЛИГ»

Марданова Дилшода Садриддин кызы,
докторант Узбекско-Финского педагогического института

Аннотация. Общеизвестно, что лингвистическая наука часто требует изучения каждого понятия как с диахронической, так и с синхронической точки зрения. Для понимания сущности науки важно изучить ее исторический контекст. Соответственно, в данном исследовании на примере произведения «Кутадгу билиг» был научно проанализирован древнетюркский язык, который активно используется в современном языке в календаре.

Ключевые слова. «Кутадгу билиг», «Дивони луг'отит тюрк», зодиак, Хут, Хамаль, Саур, Джавза, Рак, Асад, Сунбула, Мезон, Акраб, Кавс, Джадий, Далв.

THE EXPRESSION OF THE NAMES OF THE CONSTELLATIONS IN THE WORK "KUTADGU BILIG"

Mardanova Dilshoda Sadriddin qizi,
doctoral student of the Uzbek-Finnish pedagogical institute

Abstract. It is a common fact that the science of linguistics often requires the study of each concept in diachronic and synchronous aspects. In order to understand the essence of the science, it is important to study its historical content. Therefore, in this study, the appearance of the names of the constellations in the ancient Turkic language (which are actively used in our language today regarding the calendar) was scientifically analyzed using the example of the work "Kutadgu bilig".

Keywords. *"Kutadgu bilig", "Devoni lug'otit turk", constellation, Hut, Hamal, Savr, Javzo, Cancer, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jadiy, Dalv.*

"Burj" so'zi arabcha, astronomiyaga oid tushuncha bo'lib, quyoshning yillik harakat yo'li bo'ylab joylashgan o'n ikkita yulduzlar turkumining majmuyi va ularning har biri (Hut, Hamal, Savr, Javzo, Saraton, Asad, Sunbula, Mezon, Aqrab, Qavs, Jadiy, Dalv)ni ifodalaydi.

"Qutadg'u bilig" asarida nasriy va nazmiy muqaddimadan so'ng 73 bob(fasl) nomining fihrasti (mundarijasi) berilgan. 73 bobning dastlabki 11 bobi debocha bo'lib, hamd, na't, Qoraxonga madhdan so'ng beshinchi bobi aynan "Yetti sayyora va o'n ikki burj" bayoniga bag'ishlangan [1: 80-83-betlar].

Muallif asarning ushbu bobida olamning yaratilishi (kosmogoniya), yetti kavokib va o'n ikki burj xususida bahs ochadi. Shoir dunyoning vujudga kelishini islomiy aqida bo'yicha Yaratganning "Kun! – Yaral,bo'l!" so'zlaridan kelib chiqib tushuntiradi. Yetti kavokib (Sekantur, O'ngay, Ko'rud, Yashiq, Savit, Orzu, Yalchiq [1: 81-83-betlar]ning barchasi Allohning hukmi bilan yaratilib, ularning harakati Quadratli zotning izmi bilan ekanligini bildiradi. Shundan so'ng o'n ikki burjning o'rni, holati, harakati haqida ma'lumotlar bayon etiladi:

...O'n ikki **o'kak** bulardan boshqadir,

Ayrimlari ikki xonali [ya'ni juft], ayrimlari bir xonali (toq)dir.

Qo'zi – bahorgi yulduz, so'ng **Ud** keladi,

Erandiz Quchiq bilan yaqin yuradi.

Qo'rqmas **Arslon** bilan **Bug'doyboshi** qo'shnidir,

So'ng **Ulgul, Chazan** va **Yay** eshi bo'ldi.

Yana **O'g'laq, Ko'nak** va **Baliq** keldi,

Bular tuqqach, osmon yorishdi ...[1: 83-bet]

Yuqoridagi baytlar Abdulhamid Pardayev tabdilida quyidagicha keltirilgan:

...O'n ikki bu **burj**ning o'zga sirlari,

Biri juft xonali,toq qay birlari.

Hamal bahorgi-yu so'ngra **Savr** kelar,

Javzo-yu Saraton yondoshib yurar.

Jasur **Asadgachi** qo'shni **Sunbula**,

Keyin **Mezon,Chayon**,qaysar **Qavs** ular.

Yana kelar **Jadiy,Dalv**-u ham **Baliq**

Ular lutfi bilan yorishar borliq [2: 36-bet]

...O'n ikki **o'kak** bulardan boshqadir,

Ayrimlari ikki xonali[ya'ni juft],ayrimlari bir xonali(toq)dir.

"Qutadgu bilig"da "burj" ma'nosini bildirgan "o'kak" so'zi Mahmud Qoshg'oriyning "Devoni lug'otit turk" asarida "sandiqliq; tobut" ma'nosi bildirgan so'z sifatida keltirilgan.[DLT. I jild.107-bet]

"Devon"da "o'kakladi" fe'li "ol tamig' o'kakladi " shaklida "u shahar devoriga yulduzlarni qo'ndirdi" degan mazmunda " yulduz" ma'nosini ifodalab kelgan[DLT. I jild.299-bet]

Qo'zi – bahorgi yulduz, so'ng **Ud** keladi,

Erandiz Quchiq bilan yaqin yuradi.

Quyoshning osmondagi 12 ta yulduz turkumidan yillik o'tishini ifodalash uchun "burj" so'zi bilan bir qatorda xalqaro nom sifatida "zodiak" atamasi qo'llaniladi. Masalan, "Qo'y burji" va "Aries zodiagi" — bir xil tushunchani anglatadi. Juda qadim zamonlardanoq zodiakal yulduzlarning ko'pchiligi hayvonlar nomlari bilan atalgan.Zodiak atamasi ham yunoncha "zodiakos", *zoon* – hayvon o'zagidan olingan. Asarda keltirilgan **Qo'zi** – **Qo'y**, **Ud** –**Buzoq**, **Quchiq** – **Qisqichbaqa**, **Arslon** – **Sher**, **Chazan** - **Chayon**, **Baliq** – **Baliq** hayvon nomlarini ifodalaydi.

Ud leksemasining "Devon"da ham "sigir" ma'nosini ifodalishi hamda turklar qabul qilgan o'n ikki yildan biri "ud yili" – sigir yili deb atalishi aytib o'tilgan.[DLT. I Jild – 80-bet]

Chazan leksemasi ham "o'rgimchaksimonlar sinfiga mansub, bo'g'im oyoqlilar turkumiga kiruvchi zaharli hasharot – *chayon*" semasini ifodalaydi. Ilk qadimgi turkiy tillarning fonetik qurilishiga xos xarakterli belgilaridan biri "d"lashishdir. Bu davrlar turkiy tillarda tarixiy jihatdan qadimgi "r>t/d > s/z" undosh tovushlarining "y" ga o'tish hodisasi paydo bo'ladi va rivojlanadi. Masalan, XI asrda "y – s/z" mosligi Mahmud Qoshg'ariyning devonida sanab o'tilgan tillardan faqat qarluq qabila ittifoqi tarkibiga kirgan chigil tilida saqlanib qolgan. Jumladan, chigil tilida qisman qipchoq, o'g'uz, yag'mo qabilalari tilida ham "azoq" (ayaq), azig'(ayiq), (tozti) to'ydi kabi so'zlar "y" undoshi o'rnida "z", "dz" talaffuzli undoshi qo'llanilgan. [3: 108-bet]

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, "Qutadg'u bilig"dagi **Chazan** leksemasini ham turkiy tillarning fonetik qurilishiga xos xarakterli belgisiga ega so'z sifatida qarashimiz mumkin. "*Chazan* > *chayan*" – "y" undoshi o'rnida "z" talaffuzli undoshi qo'llanilgan.

Yana O'g'laq, Ko'nak va Baliq keldi,

Bular tuqqach, osmon yorishdi

Asardagi **Ko'nak** leksemasi **Dalv (Qovg'a)** burjiga to'g'ri keladi. **Ko'nak** so'ziga "Devoni lug'otit turk"da "*obdasta*" deb izoh berilgan. [DLT I jild. 373-bet] "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "*qimiz solib qo'yish uchun, suyuqliklar saqlash uchun maxsus ravishda teridan qilingan idish, sanoch, mesh*" deya izohlangan. [O'TIL I jild – 415-bet; II jild – 19-bet.] **Qovg'a** so'zi esa dialektlarda "*yog'och paqir, chelak*" ma'nosida ishlatiladi [O'TIL II jild – 592-bet] Demak, bu leksemalarni birlashtiruvchi sema **suyuqlik**, ya'ni **suv** deyishimiz mumkin. **Dalv (Qovg'a)** zodiakda ham **Aquarius**, ya'ni lotincha "*suv tashuvchi*" deyiladi.

Turkiylar geografik va tarixiy jihatdan boy madaniy merosga ega. Bu esa tarixiy va zamonaviy matnlarning leksik-semantik jihatdan boyligida o'z aksini topgan. Yuqorida tadqiq etilgan "Qutadg'u bilig" asaridagi burj nomlari ham turkiylarning so'z boyligi, olam va odam haqidagi qarashlari, koinot qonuniyatlarini kuzatish va turmush tajribalariga suyanish asosida chiqargan xulosalari, ruhiy holati, etnik va estetik tuyg'ularidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Nashrga tayyorlovchi Qayum Karimov. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1972. – 964 bet [80-83-betlar].
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Abdulhamid Pardayev tabdili. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 560 b. [36-bet]
3. Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixining ilk davrlari (V–XIV asrlar) O'quv qo'llanma. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2004. – 280 b.] (108-bet)
4. Abdurahmonov G. (2011). To'xliyev B, Rustamov A, Dadaboyev H. Qutadgu bilig. I, II, III, IV, V jildlar. – Toshkent: Jahon print, 2011. – 859 b.
5. Абдурахмонов Г. Узбек халки ва тилининг шаклланиши хакида. - Тошкент, 1999. – 88 б.
6. Абдурахмонов Ф, Шукуров Ш. Узбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент: Укитувчи, 1973. – 320 б.
7. Абдурауф Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. - Тошкент, Мумтоз суз 2008. – 248 б.
8. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. (I, II, III жилдлар). — Т., 1963.
9. Узбек тилининг изохли лугати. I жилд. – М., 1981.
10. Узбек тилининг изохли лугати. II жилд. – М., 1981.
11. Холмуродова М. Холмуродова М. "Кутадгу билиг" лексикаси. Филол. фан. фалс. док. (Phd). дисс.- Тошкент, 2019. – Б. 100.
12. Anorqulova, O. N. K. (2021). Interpretation of the concept of father in some oral and written sources. *Current research journal of philological sciences*, 2(07), 20-24.
13. Yoqubov, I. (2025). Uzbek Spelling Rules: History, Principles, and Modern Applications. *Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar jurnali*, 4(2), 20-26.

14. Kamol o'g'li, H. H. (2024, October). The Role of Auxiliary Words in the Formation of Phraseological Units. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 10, pp. 55-56).